https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Samarqand davlat pedagogika instituti
Tillar fakulteti O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi talabasi
Ahmadov Odilbek Alibek o‘g‘li
ahmadovodilbek9@gmail.com

TOBE ALOQA TURLARI ORASIDAGI TAFOVUT

Annotatsiya. Mazkur maqolada hozirgi o‘zbek adabiy tili fanining sintaksis bo‘limi tarkibiga kiruvchi so‘z birikmasi, ya’ni tobe aloqaning o‘z ichida bog‘lovchi vositalariga ko‘ra turlarga ajralishi va o‘sha turlarni bir-biridan farqlashning qulay usullari va imkoniyatlari ko‘rsatib o‘tiladi. Jumladan, so‘z birikmasi va uning bog‘lovchi vositalariga ko‘ra turlari bo‘yicha barcha ma’lumotlar umumlashtirilgan shaklda berib boriladi. Qolaversa, bog‘lovchi vositalar va bog‘lovchi vazifasini bajara oladigan boshqa unsurlarning ham tobe aloqani hosil qilishdagi o‘rnining qanchalik muhim ahamiyat kasb etishiga ham guvoh bo‘lishimiz mumkin. Shu bilan bir qatorda, biz tobe aloqaning sintaksis bo‘limidagi ahamiyatini va o‘ziga xos xususiyatlarini ham ko‘rib chiqamiz. Ushbu maqola davomida so‘z birikmasini nafaqat ichki turlari tahlilini, balki tilimizdagi boshqa leksik, sintaktik va grammatik birliklardan sezilarli farqlarini ham ko‘rsatib o‘tamiz. Bundan tashqari, tilshunoslik sohasida faoliyat olib borgan bir nechta olimlarning tobe aloqa va ularning turlariga nisbatan bildirib o‘tgan fikr va nazariyalarini ham solishtirish natijasida so‘z birikmasi haqidagi ayrim muammoli nuqtalarga javob topib boramiz.

Kalit so‘zlar: tobe aloqa, so‘z birikmasi, boshqaruv, moslashuv, bitishuv.

DIFFERENCE BETWEEN TYPES OF SUBORDINATION

Abstract. This article describes the division of the word combination, that is, the subordinate conjunction, into types according to its connecting means, which is part of the syntax section of the current Uzbek literary language science, and shows convenient methods and possibilities for distinguishing these types from each other. In particular, all information on the word combination and its types

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

according to its connecting means is provided in a generalized form. In addition, we can also witness the importance of connecting means and other elements that can perform the function of a connecting link in the formation of a subordinate conjunction. At the same time, we will also consider the importance and specific features of the subordinate conjunction in the syntax section. In the course of this article, we will analyze not only the internal types of the word combination, but also its significant differences from other lexical, syntactic and grammatical units in our language. In addition, by comparing the opinions and theories expressed by several scholars working in the field of linguistics regarding subordinate conjunctions and their types, we will find answers to some problematic points about word combinations.

Keywords: subordinate clause, word combination, management, adaptation, agreement.

РАЗНИЦА МЕЖДУ ТИПАМИ ПОДЧИНЕНИЯ

Аннотация. В данной статье описывается деление словосочетаний, то есть подчинительных союзов, на типы в зависимости от их связующего средства, что является частью синтаксического раздела современной узбекской литературной лингвистики, и представлены удобные методы и возможности различения этих типов друг от друга. В частности, вся информация о словосочетаниях и их типах в зависимости от связующего средства представлена в обобщенной форме. Кроме того, мы можем также увидеть важность связующего средства и других элементов, которые могут выполнять функцию связующего звена при образовании подчинительного союза. Одновременно мы рассмотрим важность и специфические особенности подчинительного союза в синтаксическом разделе. В ходе статьи мы проанализируем не только внутренние типы словосочетаний, но и их существенные отличия от других лексических, синтаксических и грамматических единиц нашего языка. Кроме того, путем сравнения мнений и теорий нескольких ученых, работающих в области

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

лингвистики, относительно подчинительных союзов и их типов, мы найдем ответы на некоторые проблемные вопросы о словосочетаниях.

Ключевые слова: подчинительный союз, словосочетание, контроль, адаптация, связность.

Bugungi kunga kelib, hozirgi o‘zbek adabiy tili nisbatan olib qaralganda har jihatdan takomillashgan holatini egalladi. Uni tashkil etuvchi har bir bo‘lim, tushunchalar yuzasidan yillar davomida ko‘plab olimlar tomonidan izlanishlar olib borildi. Tinimsiz olib borilgan tadqiqotlar natijasida esa o‘zbek tili hozirda dunyo tillari orasida o‘z maqomiga ega tillar doirasiga kiritiladi.

Ikki yoki undan ortiq mustaqil so‘zning ma’lum grammatik qonun-qoida asosida tobelanib birikishi so‘z birikmasi deb ataladi. So‘z birikmalarida hokim va tobelik hodisasi asosiy belgi sanaladi, ya’ni bir so‘z ikkinchisiga tobelanadi. So‘z birikmasida ma’nosi izohlanayotgan so‘z bosh so‘z, bosh so‘zning ma’nosini izohlab, to‘ldirib kelgan so‘z ergash so‘z hisoblanadi [7, 196-b.]. So‘z birikmasi sintaktik tahlil doirasiga mansub tushuncha hisoblanib, kishilar nutqini ravon qilishga, tilshunoslik sohasidagi ayrim tushunarsiz holatlarga yechim topishga, shuningdek, so‘zlarning o‘zaro bog‘lanishiga ko‘maklashadi.

Bir-biri bilan sintaktik jihatdan bog‘langan, birinchi darajali predikativlik munosabatiga ega bo‘lmagan, ikki yoki undan ortiq mustaqil so‘zlar qo‘shilmasi so‘z birikmasi deyiladi [8, 130-b.]. Demakki, ma’lum bir so‘zlar so‘z birikmasini hosil qilish uchun, albatta, eng kamida ikkita so‘zdan iborat bo‘lishi shart ekan. Yakka tartibdagi bir dona so‘z hech qachon ma’lum bir so‘z birikmasining turini hosil qilolmaydi. Ikkitadan kam bo‘lmasligi yetarli asos hisoblanadi.

So‘z birikmalari anglatgan ma’nolariga ko‘ra so‘zlarga o‘xshash: ular so‘zlar kabi nominativ atash funksiyasiga ega, narsa va hodisalarni ularning xususiyati bilan birga qo‘shib ataydi. So‘z birikmalari gaplardan quyidagi xususiyatlari bilan farq qiladi:

– gaplarda predikativlik munosabati (ega – kesim munosabatida ifoda qilinadi), so‘z birikmalarida bunday munosabat yo‘q;

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

– gaplar bir so‘zdan iborat bo‘lishi mumkin, so‘z birikmasida kamida ikkita mustaqil so‘z bo‘ladi;

– gaplar o‘z ohang tuzilishiga ega, so‘z birikmalarida bunday xususiyat yo‘q [1, 138-b.].

Yuqorida keltirib o‘tilgan ma’lumotlar orqali biz so‘z birikmasi va gapning o‘rtasidagi o‘zaro tafovut va o‘xshash jihatlarini ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘lamiz. Gap va so‘z birikmasining asosiy farqi – birida ohang tugalligi mavjud bo‘ladi, boshqasida yo‘q. So‘z birikmasining gaplarga o‘xshatish mumkin bo‘lgan bir jihati mavjud, u ham bo‘lsa tobe-hokimlik munosabatidir. Ya’ni qo‘shma gap turlaridan bo‘lgan ergashtiruvchi bog‘lovchida ham shunday munosabat mavjud.

So‘z birikmasi (keyingi o‘rinlarda SB) tasnifi. So‘z birikmalari hosil qilinishi natijasida ma’no ham torayadi, ham aniqlashadi. Ya’ni bir so‘zdan tushuniladigan ma’noga qaraganda, ma’lum bir belgisi bilan kelgan so‘zda ma’noning ravshanroq namoyish etilishi muqarrar hodisadir. Ammo ma’lum bir so‘zlarning so‘z birikmasi hosil qilishining o‘ziga yarasha talab va qonuniyatlari mavjud.

Keltirib o‘tilgan ma’lumotlar orqali biz so‘z birikmasi va so‘zning o‘rtasidagi asosiy farqni ajrata olishga muvaffaq bo‘lamiz. Ya’ni so‘zlar birikuvi qanchalik ko‘payib boraversa, ya’ni shakli kengayib boravergani sayin uning ma’nosi ham torayib boraveradi. Shuning uchun ham so‘z birikmasi so‘zga qaraganda aniqroq ma’noni ifodalashga xizmat qiladi.

SBda bog‘lanish usuli. SB a’zolari orasidagi bog‘lanish, ya’ni tobelanish uch xil: bitishuv, moslashuv, boshqaruv. Bu aloqa turining o‘ziga xos xususiyati va farqi a’zolarni biriktiruvchi ko‘rsatkich yoki boshqa vositadan kelib chiqadi [4, 398-b.].

Boshqaruv. Boshqaruv ham ikkiga bo‘linadi:

1) kelishikli boshqaruv – tobe so‘zning hokim so‘zga tushum, jo‘nalish, chiqish, o‘rin-payt kelishiklari orqali bog‘lanishidir. Masalan: uzumni yemoq, teatrga bormoq.

2) ko‘makchili boshqaruv – tobe so‘zning hokim so‘zga ko‘makchilar orqali

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

bog‘lanishidir. Masalan: g‘alaba uchun kurashmoq, do‘stlar bilan suhbatlashmoq [3, 193-194-b.].

Quyidagi parchaga e’tiborimizni qaratsak: “Samovar, choynaklarni artib, kurakcha bilan kullarini olib chelakka soldim, yelkamda sochiq, qo‘limda supurgi, hech nima ko‘rmaganday, xizmatda qoyim turganimda namoz tamom bo‘ldi” [6, 146-b.].

Ushbu parchada 10 ta boshqaruvli so‘z birikmasi mavjud bo‘lib, bular quyidagilardir: turganimda tamom bo‘ldi; xizmatda turganimda; hech nima(ni) ko‘rmaganday; qo‘limda supurgi; yelkamda sochiq; chelakka soldim; kullarini soldim; kurakcha bilan soldim; choynaklarini artib; samovarini artib.

Moslashuv. Moslashuv SBning ikki tomonlama grammatik shakllangan turi bo‘lib, bunda tobe a’zo hokim a’zoga muvofiq egalik shaklini, hokim a’zo tobe a’zoga muvofiq ravishda qaratqich yoki bosh kelishik shaklini oladi. Moslashuv aloqasida tobe a’zo qaratuvchi, hokim a’zo qaralmish deb yuritiladi [4, 400-401-b.].

Moslashuvli tobe bog‘lanish deganda qaratqich va qaralmish bog‘lanishi hamda ega va kesim moslashuvi birgalikda tushuniladi: onaning mehri, Dars boshlandi. Moslashuvli so‘z birikmasi deyilganda esa faqat qaratqich va qaralmish bog‘lanishi nazarda tutiladi: onaning mehri [4, 194-195-b.].

Quyidagi parchaga diqqatimizni qaratadigan bo‘lsak: “Oyijonim zargarning qizi bo‘lgani uchunmi, chaqaloqligida bobomiz angishvonadek keladigan qozonchada oltin eritayotganda shundoqqina yonginasida yotib, erigan oltin hidini ko‘p hidlagani uchunmi, beshikda yotganida emizik o‘rniga osib qo‘yilgan oltin tangani ko‘p so‘rgani uchunmi, ishqilib, oltin tanlashda, qalbaki yoki sofligini ajratib berishda, sirg‘a yoki uzukning tarkibida necha foiz oltin borligini belgilashda, zargarlarning aytishicha, shahrimizda unga teng keladigani yo‘q ekan”[5, 33-b.].

Yuqorida keltirilgan badiiy parchada 3 ta moslashuvli tobe bog‘lanish va 2 ta moslashuvli so‘z birikmasi ishtirok etgan. Moslashuvli tobe bog‘lanishlar: teng keladigani yo‘q ekan; zargarning qizi; zargarlarning aytishicha. Moslashuvli so‘z

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

birikmalari esa quyidagilardir: zargarning qizi; zargarlarning aytishicha.

Bitishuv. Bitishuvda birikkan so‘zlarning o‘zaro aloqasi, asosan, tartib va ohang bilan belgilanadi. Bitishuv aloqasida morfologik ko‘rsatkich bo‘lmasa-da, tartib muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Misollar: qizil gul, oq qog‘oz. Quyidagi so‘zlar bitishuv yo‘li bilan bog‘langan:

1) ravish + fe’l: o‘z-o‘zidan gapirmoq;

2) sifat + fe’l: yaxshi so‘zlamoq;

3) son + ot: o‘nta qalam, sakkiz daftar;

4) ot + ot: kumush qoshiq, chang yo‘l;

5) olmosh + ot: hamma odam, qanday kitob.

Tobe so‘z hokim so‘zga ko‘makchilar yordamida bog‘lansa, boshqaruvli birikma hosil bo‘ladi. Ammo bilan ko‘makchisi ba’zan bitishuvli birikmani ham shakllantirishi mumkin. 1) Boshqaruvli so‘z birikmasini shakllantiradi: bilan ko‘makchisi asosan aniq otlarga qo‘shilib, “kim bilan?”, “nima bilan?” so‘roqlariga javob bo‘lganda boshqaruvli birikmani hosil qiladi. Masalan, Otam bilan kitob do‘koniga bordim. Avtobus bilan keldim. 2) Bitishuvli so‘z birikmani hosil qiladi: bilan ko‘makchisi asosan mavhum otlarga qo‘shilib, “qanday?”, “qay tarzda?” so‘roqlariga javob bo‘lganda bitishuvli birikmani hosil qiladi. Masalan, Qoyadan shiddat bilan qo‘zg‘algan burgut o‘ljani ildi-yu ketdi. Do‘stim voqeani zavq bilan gapirib berdi [4, 195-196-b.].

Quyidagi parchaga e’tiborimizni qaratadigan bo‘lsak: “Jyulen hayotining shu pallasidan aniq va ishonarli faktlarni juda kam tasvirlayotganimiz uchun kitobxon bizni kechirsa kerak” [2, 249-b.].

Ushbu parchada 5 ta bitishuvli so‘z birikmasi qatnashgan va bular quyidagilardir: kam tasvirlayotganimiz uchun; juda kam; ishonarli faktlarni; aniq faktlarni; shu pallasidan.

XULOSA

Mazkur maqolada “so‘z birikmasi” haqidagi umumiy ma’lumotlar va ularning o‘ziga xos xususiyatlariga alohida urg‘u berilib o‘tildi. Ya’ni, so‘z birikmasi tasnifi:

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

uning tuzilishiga ko‘ra turlari; boshqa til birliklari bilan o‘xshash va farqli jihatlari; hokim va tobe qism munosabati, hokim so‘zning qaysi so‘z turkumi bilan ifodalanishiga ko‘ra qanday guruhlarga bo‘linishi haqidagi fikr-mulohazalar keltirib o‘tildi.

Shuningdek, so‘z birikmasining o‘zaro bog‘lovchi vositalariga ko‘ra qanday guruhlarga bo‘linishi haqidagi ma’lumotlar berib o‘tildi. Tobe aloqaning bog‘lovchi vositalariga ko‘ra barcha turlari haqidagi qarashlar nazariy va ilmiy jihatdan asoslandi. Shuningdek, moslashuvli, boshqaruvli va bitishuvli so‘z birikmalarining har biriga alohida to‘xtalib o‘tildi. Xulosa o‘rnida yana shuni ta’kidlash joizki, hozirgi o‘zbek adabiy tili ta’limi jarayonida tobe aloqa va ularning turlarini aniq va samarali o‘rganish uchun, albatta, ilmiy nazariyalarga murojaat qilinishi kerak. Chunki, so‘z birikmasi tilshunoslikning to‘lig‘icha ilmiy ma’lumotlarga asoslangan bir qismi hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. T.Choriyev, N.Safarova, Sh.Istamova, O‘zbek tili. – Toshkent: – Iqtisod – moliya, 2008. – 296 b.
2. Мари – Андри Бейлъ Стендалъ, Қизил ва қора. – Тошкент: Байоз, 2019. – 688 б.
3. Samgin Qurbonov, Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Tafakkur tomchilari, 2021. – 368 b.
4. Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Qurbonova M.M., Raupova L.R., Abuzalova M.Q., Yo‘ldosheva D.N., Hozirgi o‘zbek tili. – Toshkent: Tafakkur avlodi, 2023. – 544 b.
5. Xudoyberdi To‘xtaboyev, Mungli ko‘zlar. – Toshkent: Global books, 2021. – 368 b.
6. G‘afur G‘ulom, Shum bola. – Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2018. – 192 b.
7. I.Yo‘ldoshev, O‘.Sharipova, Tilshunoslik asoslari. – Toshkent: Iqtisod – moliya, 2007. – 192 b.
8. М.Ирискулов, Тилшуносликка кириш. – Тошкент: Ўкитувчи, 1992. – 25